

**Innovatsion ta'linda zamonaviy nutqiy faoliyat turlarining ahamiyati**

*Islamov Dilshod Narmaxammatovich*

*O'R QK "Tinchlik yo'lida hamkorlik" Markazi*

*Roman-german tillari kafedrasi katta o'qtuvchisi*

**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada chet tilini o'qitishda nutqiy faoliyat turlari, o'qish, tinglash, yozish va gapishtning muhum taraflari va ahamiyati, qolaversa, o'rganuvchilarning chet tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi va chet tilini o'qitish metodikasini shakllantirish ko'rib chiqildi.*

**Kalit so'zlar:** o'qib tushunish, gapisht, tinglab tushunish, yozma nutq, chet tili metodikasi, fonetik, leksik, grammatik bilim.

**АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассмотрены виды речевой деятельности при обучении иностранному языку, важные аспекты и значение чтения, аудирования, письма и говорения, кроме того, это вызывает интерес учащихся к изучению иностранного языка и формированию методики преподавания иностранного языка.*

**Ключевые слова:** понимание прочитанного, говорение, понимание на слух, письменная речь, методика иностранного языка, фонетические, лексические, грамматические знания.

Istiqlol sharofati tufayli mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqish, intilish, egallash tobora yuksalib bormoqda. Mamlakatimizda chet tilini o'qitishga qaratilgan chora-tadbirlar yildan yilga katta imkoniyatlarni ochmoqda. Turli iqtisodiy aloqalar, qolaversa madaniy-ma'rifiy, siyosiy, ijtimoiy, diplomatik aloqalarni davlatlararo mustahkamlashda chet tili mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojni ko'paytirmioqda. Bu esa o'z o'rnida, davlatimizni dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatorida bo'lishida yaqqol ko'zga ko'rinoqda.

Shunday ekan chet tillarini o'qitishda xorijiy til pedagoglarini yetishtirish, eng zamonaviy innovatsion bilimlarni egallagan shaxs ta'lif jarayonida muhum ahamiyatni kasb etmoqda. So'nggi yillarda nemis tilini chet tili sifatida o'qtilishiga


e'tibor kuchaydi. Buni turli oliv bilim yurtlarida, umumta'lim maktablaridagi tashkil etilayotgan dars jarayonlari isbotlamoqda. O'rganuvchi uchun pedagog xodimning dars tashkil etish uslubi katta o'rinni egallaydi. Boisi, ushbu shaxs misoli yo'lni yorituvchi chiroq kabidir. Chet til muallimi metodika fani yutuqlarini puxta o'zlashtirish orqali o'quvchining to'plagan til tajribasi me'yorini aniq bilishga va uni yanada takomillashtirishga erishadi.

Xorijiy tillarni o'qitish har qanday ushbu sohadagi pedagog xodimdan muhum va aniq vazifalarni talab etadi. Innovatsion ta'lim tizimida o'qtuvchining kasbiy mahorati, pedagogik kompetensiyasi o'rganayotgan shaxs uchun juda ham muhumdir. Xorijiy tilni oqitishda turli zamonaviy uslublar hamda metodikalar mavjud. Ushbu uslublardan o'z o'rnida to'g'ri foydalanish katta samara berishi bejiz emas. Ma'lumki, chet tilni o'rgatish-o'rganish muayyan jihatlari bilan ona tili va ikkinchi tildan keskin farqlanadi. Bu esa, o'z navbatida, tegishli chet til o'qitish texnologiyasini qo'llashni taqozo etadi. [1]

Chet til o'qitish metodi deyilganda, chet til o'rgatishning amaliy, umumta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvni ta'minlovchi muallim va o'quvchi faoliyatining majmuyi tushuniladi. Ushbu o'rinda albatta metod tushunchasiga anqlik kiritib o'tmoqlik lozimdir. Metod termini „ta'lim usullari yig'indisi“ va „ta'limning yo'nalishi“ ma'nolarida qo'llanadi. Birinchisi ta'lim nazariyasida ishlatsilsa (mas. og'zaki nutq o'rgatish metodlari, talaffiaz o'rgatish metodlari), ikkinchi m'a'noda uni o'qitish metodikasi tarixiga oid asarlarda uchratamiz. Mas. chet til o'qitishning tarjima metodi, to'g'ri metod, ongli-qiyosiy metod, an'anaviy metod, intensiv metod, audiovizual metod va boshqalar. Prof. Yefim Izrailevich Passov fikricha, metod o'quv jarayonida qo'yilgan maqsad sari yo'naltirilgan va nutq faoliyati turlari bilan bog'liq prinsiplar sistemasidir. Demak, prinsiplar metodni shakllantiradi. Bu yerda keng ma'nodagi metodik yo'nalish haqida so'z boryapti. Metodik usul yanada kichik tushuncha bo'lib, „yangi so'zning ma'nosini ochish usullari“, „til materialini o'rgatish usullari“ singari birikmalarda uchraydi. Chet tilini o'qitish metodikasi albatta bir qancha fanlar bilan bog'liqdir. [2]

Bizga ma'lumki, xorijiy tillarni o'qitishda to'rtta muhum yo'nalish ya'ni nutqiy faoliyat turlari mavjud. Bular: tinglab tushunish, yozib tushunish, o'qib tushunish va albbatta gapirish. Ushbu nutqiy faoliyat turlarini aslo bir-biridan ajratgan holda tasavvur etib bo'lmaydi. Xorijiy tilning shaxslararo va xalqaro muloqot vositasiga aylanishi uchun muloqotning barcha shakllarini va barcha nutq funksiyalarini egallash juda muhimdir. Har bitta nutqiy faoliyatni egallashni jarayonida til materiali muhum sanaladi. Nutqiy faoliyat turlarining naqadar muhim ekanligi, ularning tilni o'zlashtirishda tutayotgan o'rni va afzalliklari ni o'rganish jarayonida nemis tilshunos olimlarining bu borada olib brogan muhim taqdiqotlarini tahlil qilishni maqsad qilib oldik. Quyida xorijiy tillarni o'zlashtirishda nutqiy ko'nikmlarning har biriga alohida to'xtalib o'tamiz.

Bir qator dunyo tilshunoslari aynan nutqiy faoliyat turlari bo'yicha ko'plab izlanishlar olib borishgan. Bu borada nemis tilshunoslарining olib tadqiqotlarini ta'kidlab o'tmoq joizdir. Ulardan Renate Faistauer ta'kidlashicha, xorijiy tillarni o'qitishda quyidagi sxema muhim sanaladi. [3]




Til o'rganuvchilari uchun muloqot kompetensiyani rivojlantirish borasida nutqiy faoliyatlardan har biriga alohida to'xtalib o'tiladi. Tinglash - og'zaki xabarni idrok etish va tushunish bilan bog'liq bo'lgan nutq faoliyatining retseptiv turi sanaladi. Qolaversa, tinglab tushunish ta'lim maqsadi hamda vositasi hamdir.

Tinglash ko'nikmalarini o'rgatishning zamonaviy samarali usullari interaktiv mashqlardan multimedia resurslarigacha o'z ichiga oladi. Tinglab tushunish eng muhim ko'nikmadir. Bu tinglovchi ongida avtomatik tarzda ro'y beradi. Tinglab tushunish bu mukammal jarayon hamdir. Nemis tilshunos olimi Gert Solmeckening fikricha turli matnlarni tinglashning qiyinchilik darjasini quyidagi omillarga bog'liq.

[4]

- ovoz sifati, fon shovqinlari
- dinamikning o'zgarishi - qanchalik tez-tez, qanchalik tez, bir-biriga mos keladigan yoki aniq belgilangan
- so'zlovchilar ovozining o'xshashligi
- talaffuz
- tinglovchilar tili, dunyoqarashi va tushunish strategiyalariga mos kelishi
- matnning madaniy ta'sirining kuchi
- tinglovchilarning tushunish maqsadlari

O'qib tushunish – yozma matnni idrok etish va tushunish bilan bog'liq bo'lgan nutq faoliyatining retseptiv turi. O'qib tushunish - nutqiy faoliyatning turlaridan biri sifatida murakkab psixofiziologik jarayon bo'lib, faqat muayyan lingvistik poydevor, ya'ni fonetik va leksik-grammatik bilimlar asosida amalga oshiriladi. O'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda ushbu jarayonning ikki tomoni, ya'ni yozma xabarni qabul qilishga tayyorlaydigan o'qish texnikasini hamda axborotni sodir bo'lgan nutqiy faoliyat mahsuli sifatida anglashni inobatga olish zarur. Matnni o'qish ma'naviy boyishga, yangi-yangi axborotlarni olishga qaratilgan o'quv-metodik tadbirdir. O'qib tushunish ko'nikmasini qo'llashda albatta o'ziga xos maqsadlar mavjud. Ushbu maqsadlarni tilshunos Manuela Marchi o'z izlanishlarida quyidagicha tavsiflaydi.



Bu o'rinda *orientierende Lesen* – yo'naltiruvchi o'qish bo'lib, sarlavhalar, turli rasmlar, paragraflar va grafikalar kiradi. O'rganuvchi ma'lumotni saralash uchun *kurzorisches lesen* – saralab o'qish texnikasidan foydalanadi. Keyingisi *selektives Lesen* bo'lib, bunda raqamlar va belgilarni tushunishga harakat qilinadi. *Totale lesen* – bat afsil o'qish turida ma'lumotni tafsilotlar bilan o'qib qamrab olinadi. Ko'pgina o'rganuvchilar uchun o'qib tushunish matnni idrok etish va tushunish uchun xizmat qiladi.

Gapirish - nutq faoliyatining mahsuldor turi bo'lib, u orqali (og'zaki) muloqot amalga oshiriladi. Nutqning mazmuni - fikrning og'zaki shaklda ifodalanadi. Nutq talaffuz, leksik va grammatik qobiliyatlarga asoslanadi. Gapirish — biror fikrni izhor etish maqsadida muayyan tildagi leksik, grammatik va talaffuz hodisalarini qo'llashdan iborat. Gapirishda ishtirok etadigan til materiali, boshqa barcha nutq faoliyati turlarida ham o'rganiladi. Ular aktiv leksika va grammatika nomi bilan yuritiladigan til materialidir. Gapirish jarayoni ikki va undan ortiq shaxslar doirasida hamda monolog nutqda sodir bo'ladi. Og'zaki va yozma nutqning o'ziga xos turlari mavjud. Tilshunos Anne Pritchard-Smith og'zaki nutq turlarini quyidagicha tafsiflaydi. [5]

- ma'lumot berish
- ko'rsatmalar berish
- voqealar haqida fikr bildirish
- taqdimotlar, ma'ruzalar qilish
- harakatga hamroh bo'lib gapirish

- ta'riflash
- tushuntirish
- bahs va munozara olib borish
- kundalik suhbat
- o'zaro suhbatlar
- guruh muhokamalari

Yozib tushunish - fikrni grafik shaklda ifodalashni ta'minlaydigan nutq faoliyatining samarali turi. Chet tilini o'qitish metodikasida yozma va yozma nutq chet tilini o'qitishning ham vositasi, ham maqsadi hisoblanadi. Yozish yozma nutqning texnik tarkibiy qismidir. Yozma nutq nutq bilan birga nutq faoliyatining mahsuldor turi bo'lib, u qandaydir mazmunni grafik belgilar orqali belgilashda ifodalanadi. O'z o'mida bu kabi nutqiy faoliyatlarning barchasi uchun til materiallari turlichadir. Yozma nutq o'rganuvchi uchun intensiv shug'ullanish immoniyatini beradi. [6]

Nemis tilshunosi Wegenerning fikricha „yozish boshlang'ich madaniy texnika va tilning asosiy ko'nikmasi hisoblanadi, uning yordamida tilda ifodalangan fikr va aloqa mazmuni beriladi, ko'pincha madaniyat va tilga xos konvensiya va qoidalarga muvofiq turli maqsadlar uchun o'qilishi mumkin bo'lgan shaklga keltiriladi“. [7]

Yozma nutq (Schreiben) 1970-yillardan boshlab xorijiy tillarni o'rganishda eng afzal ko'nikma sifatida qaralgan. Aloqa funksiyasi sifatida muhum ahamiyat kasb etgan. Bugungi kunga kelib Yozma nutq til o'qitishning ajralmas qismi hisoblanadi. Yozma nutq ko'pgina vaqt va mehnat talab etadigan jarayon. Yozma nutq davomida inson o'zini-o'zi kuzatib bora oladi. Bunda savodxonlik. Mazmun eng muhum tomonini tashkil etadi. Yozma nutq ko'nikmasini rivojlantirish bevosita biror tilning Grammatik qurilishi va lug'at qatlamini mukammal o'zlashtirish bilan kechadi. Uni amalga oshirishda bir qancha talablar mavjud.

- har bitta qo'llaniladigan so'z har bir jumla yoki gap nutq egasining maqsadini ochishga xizmat qilishi, shuningdek, nutq ixcham, izchil hamda mazmun va mantiqli ifodalanishi zarur
- yozma nutqdagi keltirib o'tilayotgan fikrlar, qiziqarli, ishonchli, uslub tomonidan ravon bayon etilishi muhim.
- yozma nutqni amalga oshirishda o'sha tildagi adabiy til me'yorlariga o'zarrio ya qilgan holda, tilning so'z boyligidan foydalana olish lozim.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tmoq joizdirki, o'quv jarayonini taxminan ikki toifaga bo'lish mumkin. Bu faol va passiv o'rganish. Passiv jarayon o'qish va tinglashni o'z ichiga oladi. Boshqa tomondan, nutq va yozish faol jarayonning bir qismidir. Oxirgi ikki nutqiy ko'nikma sababli biz tilni faol tarzda amalga oshirami. Bunda xorijiy tilde xoh yozma xoh og'zaki nutqni o'rganilgan grammatik tuzilmalar, so'zlarni va iboralarni qo'llash tufayli yuzaga keltiramiz. Ushbu ikki ko'nikma o'rganuvchi uchun erkin imkoniyatni yaratib beradi va mazmunli faoliyatni yuzaga keltiradi. Albatta xorijiy tillarni egallahsha barcha til ko'nikmalari va nutqiy faoliyat shakllari muhum ahamiyat kasb etadi. Ulardan o'z o'rnida to'g'ri foydalanish xorijiy tillarni egallahsha dadil qadam bo'lib xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Botirova A.A., Solovova E.N. Chet tillarni o'qitish metodikasi. Murakkab kurs: darslik. - 4-nashr. – M-T.: AST-Astrel, 2020.
2. Rasulova M.K. Chet tillarini o'qitishning zamonaviy usullari: o'qituvchilar uchun qo'llanma. - 3-nash. - Nukus: ARKTI, 2017.
3. Faistauer, Renate (2010): Die sprachlichen Fertigkeiten. In: Krümm, Hans-Jürgen/ Fandrych, Christian u.a. (2010) :Deutsch als Fremd- und Zweitsprache. Ein internationales Handbuch. De Gruyter Mouton
4. Neuner G. Hunfeld H. Methoden des fremdsprachlichen Deutschunterrichts. Kassel. Muenchen. 2005. 240 S

5. Portmann, Paul Schreiben und Lernen. Grundlagen der fremdsprachlichen Scheibdidaktik. Tuebingen: Max Niermeyer. Reihe: Germanistische Linguistik 122. 1991. 510 S.
6. Solmecke, Gerd (2010): Vermittlung der Hörfertigkeit.- in: ebenda S. 969-975.
7. Wegener, Wolfgang (2010): Schreiben, das. In: Barkowski, Hans/Krumm, Hans-Jürgen: Fachlexikon Deutsch als Fremd- und Zweitsprache. Tübingen & Basel: UTB Francke, S. 284.
8. <https://www.bimm.at/themenplattform/thema/fertigkeiten-unterricht-vernetzt-trainieren/>
9. <https://www.bimm.at/themenplattform/wp-content/uploads/2019/06/lesenkurzundbundig.pdf>